

UO‘K (UDC, УДК): 811.111:811.512

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI DO‘STLIK VA DUSHMANLIK KONSEPTINI ANGLATUVCHI MAQOLLARDAGI GENDER XUSUSIYATLAR¹⁶

Karimova Zuxra Ulugbekovna*Urganch Davlat Universiteti doktoranti*

Orcid ID: 0000-0001-5916-0197

zuxra.karimova@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi do‘stlik va dushmanlik konseptini ifodalovchi maqollarning gender xususiyatlari tadqiq qilingan. Xalq madaniyatini ifoda etishda maqollarning roli beqiyosdir. Xalq madaniyatida do‘stlik va dushmanlik konseptini o‘zida mujassam qilgan maqollar xalqning tarixan boshdan kechirganlari, jamiyat va oilaviy munosabatlarda o‘zaro aloqalar, boshqa xalqlar bilan munosabatlar kabi muhim ma’lumotlar va xalqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi. Ushbu maqollarga gender nuqtayi nazaridan murojaat qilishimiz do‘stlik va dushmanlik munosabatlarida erkaklar va ayollarning qarashlaridagi o‘ziga xosliklarni ochib beradi. Ingliz va o‘zbek xalqlaridagi ushbu munosabatlarni xalq maqollarida yoritilishi ikkala xalq madaniyatidagi o‘ziga xosliklarni ifodalaydi. Maqolada do‘stlik va dushmanlik konseptini ifodalovchi maqollar orasidan gender komponentli maqollar semantik va gender tahlilga tortildi va ikki til egalari madaniyati va tili o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlari misollar bilan ko‘rsatildi. Maqollar gender komponentli leksikalariga asosan guruhlarda tahlil qilindi. O‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarda do‘stlik va dushmanlik g‘oyasini ifodalashda gender xususiyatlarning yoritilishi ikkala xalq qadriyatlaridagi o‘ziga xosliklarini ochib berdi.

KALIT SO‘ZLAR

Maqol, gender komponent, do‘stlik konsepti, dushmanlik konsepti, paremiya, leksik birlik, maskulin rod, femenin rod, stereotip.

Received: November 30, 2024

Accepted: December 12, 2024

Available online: March 1, 2025

¹⁶ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Karimova Z. U. Ingliz va o‘zbek tillaridagi do‘stlik va dushmanlik konseptini anglatuvchi maqollardagi gender xususiyatlar. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 140-150

ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОСЛОВИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ КОНЦЕПТЫ ДРУЖБЫ И ВРАЖДЫ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Каримова Зухра Улугбековна

докторант

Ургенчский государственный университет

Orcid ID: 0000-0001-5916-0197

zuxra.karimova@gmail.com

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В статье рассматриваются гендерные характеристики пословиц, выражающих концепты дружбы и вражды, в английском и узбекском языках. Роль пословиц в передаче особенностей культуры народа очень важна. Пословицы, содержащие концепты дружбы и вражды, сформированные в сознании представителей различных культур, передают важную информацию о таких специфических особенностях народов, как их исторический опыт, семейные, общественные, межнациональные отношения. Подход к этим пословицам с гендерной точки зрения раскрывает специфику взглядов мужчин и женщин на дружбу и вражду. Представление этих отношений в английских и узбекских пословицах отражает специфику культур обоих народов. В статье объектом семантического и гендерного анализа выступают пословицы с гендерным компонентом как особая группа пословиц, выражающих концепты дружбы и вражды. На примере анализа данной группы пословиц были показаны сходства и различия между двумя культурами и языками. Отобранные для анализа пословицы были распределены по группам на основе гендерного компонента входящей в их состав лексики. Освещение гендерных особенностей в выражении идей дружбы и вражды в узбекских и английских пословицах позволило выявить своеобразие ценностей обоих народов.

Пословица, гендерный компонент, концепт дружбы, концепт вражды, паремия, лексическая единица, мужской род, женский род, стереотип.

GENDER CHARACTERISTICS IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS EXPRESSING THE CONCEPTS OF FRIENDSHIP AND ENMITY

Zukhra Ulugbekovna Karimova

doctoral student at Urgench State University

Orcid ID: 0000-0001-5916-0197

zuxra.karimova@gmail.com

ABSTRACT

The article studies the gender characteristics of proverbs expressing the concept of friendship and enmity in English and Uzbek. The significance of proverbs in the expression of folk culture cannot be underestimated. Proverbs that express the concept of friendship and enmity in folk culture shed light on important information and the specific characteristics of peoples, such as the historical experiences of the people, interactions in society and family relations, and relations with other peoples. Examining these proverbs through a gender lens uncovers the distinct perspectives of men and women on the concepts of friendship and enmity. The coverage of these relations in English and Uzbek proverbs reflects the specifics of both peoples' cultures. The article examines proverbs with a gender component that express the concepts of friendship and enmity, and conducts a semantic and gender analysis. It also illustrates the similarities and differences between the cultures and languages of the two speakers through examples. The proverbs were studied in groups according to their gender-related language. The coverage of gender characteristics in expressing the idea of friendship and enmity in Uzbek and English proverbs revealed the uniqueness of the values of both nations.

KEY WORDS

Proverb, gender component, concept of friendship, concept of hostility, paremia, lexical unit, masculine gender, feminine gender, stereotype.

KIRISH

Til jamiyatning ko‘zgusi bo‘lib, faqat uning madaniyati va tarixini emas, balki millat qadriyatlarini ham aks ettiradi. Millat qadriyatlarining bir qismini esa uning ichidagi gender munosabatlari tashkil etadi. Har bir inson o‘zining fikrlash tarziga, hayotiy tajribasiga va qobiliyatlariga qarab bir-biridan farq qiladi. Biroq, hamma odamlarni birlashtiruvchi umumiy xususiyatlar ham mavjud. Ushbu xususiyatlarni o‘rganish uchun, jamiyat tajribalariga asoslangan xalq og‘zaki ijodining bir shakli bo‘lgan maqollarni tadqiq etish mumkin. (Karapetyan L., Danukhyan L., 2023, 28)

Tilda jinsni ifodalash muammosi madaniyatshunoslik, antropologiya, ta’lim, san’at, falsafa, tilshunoslik va psixologiya kabi ko‘plab fanlarda o‘rganilgan. (Kirsanova M., 2018, 68)

Maqollar insonlar va jamiyat hayotida ajralmas rolga ega, chunki ular xalqning turmush tarzi, an‘analari va fikrlash tarzini aks ettiradi. Shuningdek, maqollar xalq orasidagi stereotiplar, gender munosabatlari va boshqa ijtimoiy bo‘linishlarni ham namoyon etadi. Demak, maqollarni o‘rganish tilni tadqiq qilishdan tashqari, jamiyatni o‘rganishga ham yordam beradi. Genderga oid maqollarni tahlil qilish, biror xalq hayotidagi jinslararo farqlar, ularning tarixiy asoslari, va jinslar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishning muhim usulidir. Maqollarda gender munosabatlarning aks etishi, bu tushunchaning xalq tomonidan qanday qabul qilinishini ko‘rsatadi. Tilda jinsni ifodalanish masalalari anchadan buyon tilshunoslik va boshqa ko‘plab sohalarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelyapti. Shu jumladan tilning bir qismi bo‘lgan va xalq madaniyatini ochib berishda keng ahamiyatga ega bo‘lgan maqollarda gender xususiyatlar ham bir qator olimlar diqqat markazida bo‘ldi.

Tadqiqotimiz natijasida tarkibida gender komponentga ega bo‘lgan maqollar tanlab olindi va erkaklar va ayollar mavzulari jihatidan tasnif qilindi. Maqollar xalq madaniyatining bir qismi sifatida, insonlarning o‘ziga xos xususiyat va faoliyatlarini ochib beradi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish ingliz va o‘zbek tillaridagi do‘stlik va dushmanlik konseptini ifodalovchi maqollar jamlandi, ulardagi gender

xususiyatlarni ifodalovchi elementlar aniqlandi va ular orasidan gender xususiyatli maqollar tanlab olindi.

Zamonaviy ingliz tilida gender ko'rsatkich asosan ot so'z turkumiga xos hisoblanadi. Ingliz tilidagi *man* leksik birligi ba'zi hollarda gender ko'rsatkich bo'lsa, ba'zi hollarda umumiy insonlarni anglatuvchi so'z sifatida qo'llaniladi. G.I. Ergasheva o'z ilmiy ishida ingliz tilida —man (erkak) leksik birligini —human, —human being (odam, inson) leksik birligi bilan tenglashtirilishi qay darajadaligini aniqlash uchun quyidagi lug'atlarga murojaat etdi: Dictionary of Contemporary English (2000); The Concise Oxford Dictionary (1911); The Oxford Dictionary of English Etymology (1966); Oxford advanced Learners Dictionary of Current English (1974). Tahlillarga ko'ra, nisbatan erta nashr etilgan lug'atlarda (1911, 1966, 1961) **man** so'zining birinchi ma'nosi *human being* – *inson, kishi* tarzida berilib, erkakni anglatuvchi ma'no esa 2, 4 o'rinda turuvchi izohlarda keltiriladi: The Oxford Dictionary of English Etymology (1966): Man – 1) human being; 2) adult male O.E, 3) vassal, manservant XII, 4) husband XIII; 5) progenitor of mankind. The Concise Oxford Dictionary (1911): Man – 1) human being; 2) the human race; 3) human being of specified historical period; 4) adult human male; 5) husband; 6) vassal. The Oxford English Dictionary (1961): Man – 1) a human being (irrespective of sex or age); 2) an adult male person. Nisbatan kechroq nashr etilgan lug'atlarda esa *man* erkak bilan tenglashtirilgan desak xato bo'lmaydi, chunki *man* so'zining birinchi ma'nosi – “adult male human being” tarzida beriladi. Oxford Advanced Learners Dictionary of Current English (1974): Man – 1) adult male human being; 2) human being; person; 3) the human race, all mankind; 4) husband; 5) manservant of valet. (Ergasheva G.I., 2011, 59)

Tadqiqotimiz natijasida jamlangan maqollar erkak, ayollar va ikkala jinsga oid tushunchalarni o'zida ifodalovchi maqollar kabi guruhlariga tasnif qilindi. Tahlilga tortilgan do'stlik va dushmanlik tushunchalarini o'zida ifoda etgan maqollar tarkibidan ingliz tilida *man* leksemali maqollar tanlab olindi. Qadimgi ingliz tilida *man* so'zi maskulin rodni anglatgan bo'lsa-da, uning hozirgi kunda qo'llanishi umuminsonlarga xos tajribani anglatadi. *Every man is his own worst*

enemy (Har bir inson o‘zining eng yomon dushmanidir) (Martin H. M., 2007. 352) maqoli odamlar ko‘pincha o‘zlarining eng katta to‘siqlari ekanligi haqidagi fikrni ta’kidlaydi. Bu o‘z-o‘zidan shubhalanish, noto‘g‘ri qarorlar, ichki nizolar yoki shaxsiy kamchiliklar tashqi omillardan ko‘ra ko‘proq taraqqiyot yoki muvaffaqiyatga to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Maqolda yoritilgan o‘z-o‘ziga mas’uliyat va o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish hayotdagi qiyinchiliklarni yengishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi g‘oyasi gender neytral bo‘lib, dunyodagi har bir shaxsga taalluqlidir. Shu asosda tadqiq qilinayotgan maqollarda *man* komponentli aksariyat maqollar gender ko‘rsatkichga ega deb topilmadi. Zamonaviy kontekstda *man* so‘zi o‘rniga “person”–“shaxs” yoki “individual”–“individual” kabi jinsga bog‘liq bo‘lmagan alternativlar keng qo‘llaniladi.

Tadqiqot uchun jamlangan maqollar orasidan **he**, **his**, **him** komponentli maqollar ham ajratib olindi, ular maskulin rodni ifoda etmasdan barcha insonlar uchun taalluqli ekani aniqlandi.

- *Before you choose a friend eat a bushel of salt with him* (Do‘st tanlashdan oldin, u bilan bir botmon tuz iste’mol qiling);
- *He that conquers himself conquers an enemy* (O‘zini mag‘lub etgan dushmanni ham yengadi);
- *One’s best friend is his mirror* (Insonning eng yaxshi do‘sti uning ko‘zgusidir).

Zamonaviy mantlarda *man*, *he* so‘zlari qatnashgan maqollarni ulardagi gender xususiyatlarni olib tashlagan holda qo‘llanilishi ko‘p uchraydi: Asl shakli: *Man’s life is filed by his foe* O‘zgartirilgan shakli: *Person’s life is filed by their foe*. (Insonning hayoti dushmanlari tomonidan yozib olinib boriladi.)

O‘zbek tilida ham ingliz tilidagidek maqollarda jins kategoriyasi leksik-semantik birliklar orqali ifoda qilinadi. Bunga sabab o‘zbek tilida rod grammatik kategoriyasining mavjud emasligidir. “Turkiy tillarda rod grammatik kategoriyasining mavjud emasligi tabiiy jins va rod kategoriyasi o‘zaro munosabatlari muammosini yo‘qotsa-da, biroq o‘zbek tili animativ semantikani

uzatib berolmasligi uchun sabab bo‘la olmaydi, chunki tabiiy jins tushunchasi leksik va sintaktik vositalar orqali ifodalanadi.” (Rasulova M.I., 2005, 74)

Ingliz tilida maskulin genderni ifoda qilgan maqollar 7 tani tashkil qildi va gender quyidagi elementlar orqali ochib berildi:

1 – jadval:

Gender ko‘rsatkich	soni
oiladagi munosabatlarni ifodalovchi so‘zlar	3
„boy“ – „o‘g‘il bola“ leksik birligi	1
erkaklarga xos xususiyatlar ifodalovchi mazmun plani(tarkibida maskulin gender komponent mavjud emasligiga qaramasdan)	3

O‘zbek tilidagi do‘stlik va dushmanlik konseptini ifodalovchi maqollar orasidan 98 tasi maskulin genderga xoslikni ifodalovchi maqollar ekanligi aniqlandi. Maqollarda maskulin gender komponentlar quyidagicha taqsimlangan:

2-jadval:

Gender ko‘rsatkich	soni
Erkaklarni ifodalovchi so‘zlar	29
Erkaklarga xos kasb turlarini ifodalovchi so‘zlar	20
Qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi so‘zlar	12
Erkaklarga xos fe‘l-atvorni ifodalovchi so‘zlar	36

Arpasiz ot tov osholmas, orqasiz alp yov bosolmas. (Berdiyev H., Rasulov R., 1984, 30) Maqol biror narsani amalga oshirish uchun kerakli shartlar va tayanchlar mavjud bo‘lishi zarurligini ifodalaydi. Bu, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish va yordamning muhimligini ko‘rsatadi. Maqolda gender komponentli so‘zlar “ot” va “alp” so‘zlaridir. „Ot“ va „alp“ so‘zlarining ishlatilishi, bu maqolni an’anaviy tarzda erkaklarga xos fazilatlar bilan bog‘lashga imkon beradi. „Ot“ va „alp“ kabi so‘zlar odatda erkaklar bilan bog‘lanadigan tasvirlar sifatida ko‘riladi — ot erkakning kuchi va harakatliligini, alp esa uning jasoratini va yuksak fazilatlarini aks ettiradi. „Alp“ so‘zi kuchli, yuksak ma’naviy yoki jismoniy fazilatlariga ega

bo'lgan odamni ifodalaydi. „Orqa“ bu yerda yordam, qo'llab-quvvatlash yoki kuchli bir asosni anglatadi. „Yov“ esa dushman yoki qarshi tarafni bildiradi. Bu maqoldagi ma'no, kuchli inson ham, biror narsani amalga oshirish uchun yordam va tayanchga muhtojligini ta'kidlaydi.

Aroqxo'r ulfat – keltirar kulfat. (Siddiqov E., 1986, 10) Maqol aroq ichish odatini davom ettirgan yoki aroqni ko'p iste'mol qilgan shaxslarning ijtimoiy munosabatlarda muammo yoki baxtsizliklarga duch kelishi haqidagi ogohlantiradi. Maqolni gender nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, bu jumladagi „aroqxo'r“ va „ulfat“ so'zlarining erkaklarga xos xususiyatlar bilan bog'lanish ehtimoli yuqori. Aroqxo'rlik— erkaklar orasida ichkilikka berilish, aksariyat ijtimoiy va madaniy kontekstlarda, ko'pincha erkaklar bilan bog'lanadigan bir holat sifatida ko'riladi. Shuningdek, aroq ichish odati ba'zan erkaklar orasida jamiyatda bir xil guruhni tashkil qilish yoki ular o'rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida ishlatiladi. Ulfatchilik — do'stlik yoki hamkorlikni bildiruvchi so'z bo'lib, bu holatda ham ko'pincha erkaklar o'rtasidagi do'stlikni aks ettiradi. Maqol ijtimoiy do'stlik va erkaklar o'rtasidagi aloqalarni ta'kidlaydi, ammo bu aloqalar ichkilik ichish orqali faollashganda, yakuniy natija salbiy bo'lishini anglatadi.

Yomon xotin olganning yovi uyida, ikki xotin olganning dovi uyida. (Mirzayev T., 2005, 126) Maqol ikki qismdan iborat bo'lib, har bir qismda turli ijtimoiy va oilaviy muammolarni yoritadi: Maqolning birinchi qismi – „Yomon xotin olganning yovi uyida“ yomon xotin bilan turmush qurish natijasida, uning o'zi uchun, shuningdek, uning uyida yashovchilar uchun muammo va baxtsizlik keltirishi haqida ogohlantiradi. „Yov“ bu yerda zarar, dushmanlik yoki ijtimoiy muammo sifatida ishlatiladi, ya'ni yomon xotin uyda doimiy ravishda ziddiyatlar, nizolar va baxtsizliklarga olib keladi. Maqolning ikkinchi qismi „Ikki xotin olganning dovi uyida“ bir erkak bir necha xotin olganida, ularning o'rtasidagi nizo va ziddiyatlar kutilishini bildiradi. „Dov“ bu yerda qarama-qarshilik, jang yoki shikoyatlarning mavjudligini anglatadi. Ikki xotin bir uyda yashasa, o'rtalarida doimiy ravishda dushmanlik va nizolar bo'lishi mumkin. Maqolda erkaklarga xos leksika

qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, “xotin” so‘zining qo‘llanilishi maqol erkaklar uchun ogohlantirish sifatida aytilgan jumla sifatida qaraladi.

Nomardni jang sinaydi, do‘stni – muhtojlik. (Mirzayev T. va b., 2005, 50) Maqol insonning haqiqiy tabiatini aniqlovchi vaziyatlarga urg‘u beradi. Maqol an’anaviy jamiyatlardagi erkaklar roli va qadriyatlariga urg‘u beradi. „Jang“ tushunchasi ko‘pincha erkaklar mardligini sinovchi vaziyat sifatida qaraladi. Bu, asosan, patriarxal jamiyatda mardlik va jasorat erkaklikning asosiy fazilati sifatida qadrlanishi bilan bog‘liq. „Nomard“ tushunchasi gender neytral bo‘lsa-da, an’anaviy madaniyatda bu ko‘pincha erkaklarga nisbatan qo‘llanadi, chunki jang va urush odatda erkaklarga xos faoliyat deb qaralgan. Maqol inson xulq-atvorining universal jihatlarini ochib beradigan o‘g‘itdir, ammo gender tahlilda uning an’anaviy erkaklik qadriyatlariga (jang, mardlik) urg‘u berishi kuzatiladi. Shu bilan birga, do‘stlik va yordam genderdan qat’i nazar, barchaga tegishli bo‘lgan fazilatdir.

Tadqiq qilingan maqollar orasida feminin jinsga xos bo‘lgan maqollar ingliz tilida 12 tani tashkil qildi. Maqollarda feminin rod asosan „woman“ va „girl“ so‘zlari yordamida ifodalangan. O‘zbek tilida do‘stlik va dushmanlikni ifodalovchi maqollar orasidan feminin rodni ifodalagan 3 ta maqol aniqlandi. Ularda gender o‘ziga xoslik “qiz”, “kelin”, “qaynona” so‘zlari bilan ifodalangan.

XULOSA

Jamlangan maqollar tahlili natijasi o‘zbek va ingliz xalq maqollari orasida do‘stlik va dushmanlik tushunchalarini anglatuvchi maqollarda gender xususiyatlarni anglatuvchi maqollar tasnifini yaralishiga sabab bo‘ldi. Ularda gender ko‘rsatkichlar leksik ifodalar bilan yotilgani ma’lum bo‘ldi. Ingliz tilidagi do‘stlik va dushmanlik tushunchalarini anglatuvchi maqollarda feminin jinsni ifodalovchi maqollar maskulin jinsni ifodalovchi maqollarga nisbatan son jihatdan ko‘proq ekanligi aniqlandi. O‘zbek tilida esa aksincha maskulin jinsni ifodalovchi maqollar soni ustunlik qildi. O‘zbek tilidagi maqollarda erkaklarga xos jasurlik, mardlikni ulug‘lovchi maqollar ko‘p uchragan bo‘lsa, ingliz tilidagi erkaklarga xos maqollarda asosan oilaviy munosabatlar yoritilgan. Ikkala xalq maqollarida ham ayollarning salbiy xususiyatlariga urg‘u berilgan. O‘zbek va ingliz tilidagi do‘stlik va

dushmanlik haqidagi maqollar tahlili ikkala til egalari madaniyatining o'ziga xosliklarini, o'xshash va farqli tomonlarini ochib berdi. Tadqiqotimizning keyingi bosqichlarida maqollarda do'stlik va dushmanlik tushunchalarining ifodalanishidagi ingliz va o'zbek tillariga xos boshqa qirralarni tahlil qilishga kirishganmiz.

FOYDALANILGAN ADAOTLAR:

1. Karapetyan L., Danukhyan L. Linguistic expression of gender distinctions in English proverbs and sayings. Armenian Folia Anglistika, Vol. 19, Issue 2 (28), 2023
2. Kirsanova, M.. Androcentrism of English proverbs and Anti-Proverbs with Gender Components. Journal of Language and Education, 4(2), 2018. 68-77.
3. Эргашева Г.И. «Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи». Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. Ташкент. 2011
4. Mieder W.; Kingsbury S.A.; Kelsie H.B. A Dictionary of American proverbs. New York: Oxford University Press. 1996. P 240
5. Uzma Rani, Mazhar Iqbal Ranjha. Representation of Men and Women in English Proverbs: Analysis of Power Relationships. Journal of English Language Literature and Education ISSN 2663-3485 Vol.2 Issue 2 (Oct. - Dec. 2020) pp 35-62
6. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: ФАН, 2005. – 268с
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmoatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –T.: O'zbek sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. 524b.
8. Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsoqov B., O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005.
9. Siddiqov E. Qanotli so'zlar: maqollar, matallar, hikmatli so'zlar. – T.: Yosh gvardiya. 1986. 286 b.
10. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. - T.: O'qituvchi. 1984. 288 b.
11. Martin H. Manser. The Facts On File Dictionary of Proverbs. New York. An imprint of Infobase Publishing, 2007. –513p.

REFERENCES

1. Karapetyan, L., Danukhyan, L. (2023) Linguistic expression of gender distinctions in English proverbs and sayings. *Armenian Folia Anglistika*, Vol. 19, Issue 2 (28).
2. Kirsanova, M. (2018) Androcentrism of English Proverbs and Anti-Proverbs with Gender Components. *Journal of Language and Education*, 4(2), 68-77.
3. Ergasheva, G.I. (2011) "Comparative and typological study of the gender aspect in phraseology and paremia of the English and Uzbek languages". Dissertation submitted for the degree of Candidate of Philological Sciences. Tashkent.
4. Mieder, W.; Kingsbury, S.A.; Kelsie, H.B. (1996) *A Dictionary of American proverbs*. New York: Oxford University Press. P 240
5. Uzma Rani, Mazhar Iqbal Ranjha. Representation of Men and Women in English Proverbs: Analysis of Power Relationships. *Journal of English Language Literature and Education* ISSN 2663-3485 Vol.2 Issue 2 (Oct. - Dec. 2020) pp 35-62
6. Rasulova M.I. (2005) *Fundamentals of lexical categorization in linguistics*. Tashkent: Fan. 268p
7. Shomaqsudov, Sh., Shorahmedov, Sh. (1990) *Hikmoatnoma. Uzbek proverbs explanatory dictionary*. Tashkent. Uzbek Soviet Encyclopedia Main Edition. 524p.
8. Mirzayev T., Musoqov A., Sarimsaqov B., (2005) *Uzbek folk proverbs*. Tashkent. Sharq.
9. Siddikov E. (1986) *Winged words: proverbs, sayings, wise words*. Tashkent. Yosh gvardiya. 286 p.
10. Berdiyev H., Rasulov R. (1984) *Paremiological dictionary of the Uzbek language*. Tashkent. Ukituvchi. 288 b.
11. Martin H. Manser. (2007) *The Facts On File Dictionary of Proverbs*. New York. An imprint of Infobase Publishing. 513p.